

ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINI ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR YORDAMIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Umarxo'jayev Asadbek Shuhratjon o'g'li
IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi 209-guruh kursanti
Ilmiy rahbar – Maxamadov Rustam Xabibullayevich
IIV Akademiyasi Axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

Аннотация: В данной статье речь идет о новейших, высокоэффективных инновационных технологиях, используемых органами полиции могущественных (Гигант-7) стран мира, и о решении наиболее актуальных задач путем их применения в сфере внутренних дел нашей страны.

Ключевые слова: статистика, кибератака, система радиосвязи, система GPS, устройство Textalyzer, идентификационные очки, мониторинг сигнализации, мониторинг водителя.

Annotation: This article is about the latest, highly effective innovative technologies used by the police bodies of the world's powerful (Giant-7) countries, and it is about solving the most urgent problems by using them in the field of internal affairs of our country.

Key words: statistics, Cyber attack, radio system communication, GPS system, Textalyzer device, identification glasses, alarm monitoring, driver monitoring

Annotatsiya: Mazkur maqola dunyoning qudratli (Gigant-7) davlatlarning Politsiya organida qo'llayotgan eng so'nggi, samaradorligi baland innovatsion texnologiyalar haqida bo'lib, ularni Yurtimiz Ichki ishlar sohasida qo'llash orqali eng dolzarb muommolarga barham berish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: statistika, Kiberxujum, radio tizimli aloqa, GPS tizimi, Textalyzer qurilmasi, identifikatsion ko'zoynaklar, signalizatsiyasi monitoringi, drayverlar kuzatuv

So'nggi yillarda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'sishi, internetdan keng foydalanish, axborot asriga o'tish va axborot jamiyati deb ta'riflangan davr bilan institutlarning o'z vazifalarini bajarish usullari ham o'zgardi. Har bir soha axboratlashgan jamiyat bilan teng suratlar bilan rivojlanmoqda. Xususan, bizning ichki ishlar sohasida ham innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda. Lekin shu takidlash lozimki, yurtimizda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan texnologiyalardan ortda qolayotganini ko'rish mumkin.

Statistik ma'lumotlarda, O'zbekistonda 2022-yil 6 oyda sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 95,3 foizi fosh etilgan, qidiruvdagilar 1 833 nafar shaxs ushlangan, bedarak yo'qolgandan 218 nafar shaxs topilgan. Ichki ishlar organlari xodimlarining tashabbusi bilan mazkur davrda 15 434 ta jinoyat aniqlangan.

Lekin jinoyatlar olamida kiberxujumlar hamda Ommaviy axborot vositalari orqali sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarini fosh etish hali ham muommoligicha qolmoqda. Bunga asosiy sabab ham Kiberxujum foydalanuvchilari tomonidan foydalanayotgan dasturiy ta'minotlar hamda innovatsion texnologiyalar jihatidan Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni biroz bo'lsa ham ortda qoldirmoqda. Bizning maqsadimiz ham yosh xodimlarda kiber malakani shakllantirish orqali xorijiy texnologiyalarni yurtimizning huquqni muhofaza qiluvchi organlarda qo'llashdir. Bu harakatlarimiz xorijiy innovatsion texnologiyalarni yurtimizning ichki ishlar tizimida qo'llab, kiberjinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini samaradorligini oshirishga qoyilgan ilk qadamlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Quyida biz xalqaro politsiya tizimida qo'llayotgan ilg'or texnologiyalar haqida batafsil to'xtalamiz:

Turkiya politsiyasi tomonidan yaqin davrda keng amaliyotga joriy etilgan Turkiyaning ASELSAN kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan qurilma bu-raqamli radio tizimli aloqa vositasidir. Bu qurilma yirik shaharlar bo'lmish-Anqara va Istanbul politsiya bo'limlarida sinovdan o'tkazildi. Bu qurilmani joriy etishdan maqsad: statistikaga ko'ra, turkiyada gumondorlar soni 2018-yilda 9,8 million gumondor bo'lgan bo'lsa, bu raqam 2022-yilda 13 million 97 ming 311 nafarga ko'tarildi.

Bunga ko'ra politsiya organlari har bir gumondorlar bilan muomala jarayonida albatta ilg'or texnologiyalarga tayanishi edi. Ko'p o'tmay qurilmani amaliyotga qo'llash jarayonida texnologiyadan kutilgan maqsadga to'la erishildi.

Qurilma shifrlangan xavfsiz aloqa, olingan ma'lumotlarni taxlil qilish qilish, avtomobil va xodimlarning joylashuvini aniqlash, qisqa xabar yuborish, shaxsiy va guruh qo'ng'iroqlari, umumiy ovozli qo'ng'iroq, yordam uchun bir marta bosish orqali favqulodda qo'ng'iroqlar tizimlari, signalizatsiyasi monitoringi, radio orqali telefon qo'ng'irog'i kabi funksiyalardan foydalanish mumkin. Bu qurilma xodimlarning xavfsizligi taminlab bir-birlari bilan doimiy xavfsiz aloqa imkoniyatini beradi. Radio tizimli aloqa vositasi hozirda yurtimizda qo'llanilayotgan BODY camera, profilaktika inspektorlari foydalanadigan planshetdagi ayrim imkoniyatlar va GPS tizimi, mobil telefonimizdagi SMS, telefon va xabarlar almashinuv funksiyasini, qo'riqlash xizmatiga ulangan signalizatsiya tizimining faolligi funksiyalarini qamrab oladi. Ushbu qurilmani yurtimizda joriy etish orqali xodimlarimizning ish samaradorligini yanada oshirgan bo'lamiz.

E'tibor berayotgan bo'lsak, hozirda haydovchi avtomobil boshqarayotganda diqqatni chalg'ituvchi- mobil uyali aloqa vositasidan foydalaish oqibatida ko'plab

YTX sodir bo'lmoqda. 2022 yilning 10 oyi davomida respublika yo'llarida sodir etilgan yo'l-transport hodisalarida 2 mingga yaqin kishi halok bo'lgan, 6900ga yaqin kishi tan jarohati olgan. Shulardan qariyb 25% ini haydovchi va piyodalar tomonidan diqqatni chalg'ituvchi turli xil uyali aloqa vositalardan foydalanib yo'lni kesib o'tish va avtomobilni boshqarish paytida kelib chiqqan. Bu statistika juda katta miqdorni tashkil etmoqda, e'tiborlisi ham uni oldini olish choralari ayrim muommalarga duch kelmoqdamiz. Xususan, YPX xodimlari haydovchi avtomobil boshqarayotganda hamda piyoda yo'lni kesib o'tayotganda mobil uyali aloqa vositasidan foydalanib kelayotganiga hech qanday dalil keltira olmayapti. Chunki haydovchi va yo'lovchi birgina telefonidagi qo'ng'iroqlar jurnalini tozalab telefon displeyida go'yoki avtomobil boshqaruvida yoki piyodalarni yo'lni kesib o'tishda telefondan foydalanilmagan ko'rinishni ko'rsatishi orqali YPX inspektorining o'rinli shubhasiga yakun yasamoqda. Bu juda kulguli holat.

Shunday dolzarb muommoni Buyuk Britaniya Politsiya tizimida yechimi mavjud, bu ham bo'lsa birgina Textalyzer qurilmasi orqali. Politsiya uchun mo'ljallangan Textalyzer nomli qurilma foydalanuvchilar o'z smartfonlarida nima qilayotgani haqida politsiyaga xabar beradi. Planshet o'lchamdagi ushbu elektron qurilma haydovchilar avtomobilni boshqarish vaqtida mobil telefonlaridan foydalanayotganini ko'ra oladi. Bu hammasi emas, qurilma smartfonlarda qilingan har bir bosish, surish va teginishni ham yozib oladi. Hatto drayverlar qaysi dasturdan foydalanayotganini ham ko'rsatishi mumkin. Boshqacha aytganda, politsiya xodimlari gumonlanuvchining smartfonidagi ma'lumotlarga bir necha soniya ichida kirishlari mumkin. Agar fuqoro politsiya xodimiga e'tiroz bildirsa, politsiya xodimi fuqoroning smartfonini Textalyzerga ulab, haydash paytida yoki piyodalarni yo'lni kesib o'tish vaqtida telefondan foydalanayotganini tekshirishlari mumkin. Lekin bu qurilma omma oldida bir necha e'tirozlarga sabab bo'ldi. Chunki Textalyzer har bir yaqin atrofdagi fuqorolarni smartfonidagi jarayonlarni kuzatib turish mumkin. Shuning uchun Hukumat bu qurilma maxfiylik siyosatini to'liq darajada ta'minlab berishi hamda qurilmadan foydalanish faqat xavfsizlik masalasida qo'llanilishini ta'kidladi.

Dunyoda politsiya tizimi kuchli bo'lgan Xitoyda ham politsiya tizimida oxirgi islohotlardan biri bu ko'rinishi xuddi ko'zni quyoshdan pana qiluvchi ko'zoynakka o'xshash yuzni tanib olish, gumonlanuvchini aniqlash tezkor identifikatsiya, tezkor ma'lumotlar taxlilini o'z ichiga olgan smart ko'zoynakdir. Xitoy Yangi yili yaqinlashmoqda, shuning uchun mamlakatda juda ko'p mehmonlarni qabul qilish va har kimni shaxsan tekshirish juda qiyin. Politsiya ma'lumotlariga ko'ra, smart ko'zoynakni xodimlar foydalanishi bilanoq hech qancha vaqt o'tmay 7 gumonlanuvchi va yolg'on guvoynomalar ostida sayohat qilgan 26 kishi allaqachon yuzni tanib quyoshdan saqlaydigan ko'zoynak yordamida qo'lga olingan. Tuman bo'ylab o'rnatilishi rejalashtirilgan kuzatuv kameralaridan asosiy afzalligi shundaki,

yuzlarning xiralashishi kuzatilmaydi. Kameralar odamni aniqlash uchun ko'zoynakdan ko'ra ko'proq vaqt talab etadi. Ko'zoynaklar oldindan yuklangan ma'lumotlar bazasidan odamlarni taniy oladi. Ma'lumotlar bazasida 10 000 dan ortiq gumonlanuvchilar mavjud bo'lib, skanerlash 100 millisekund davom etadi.

Ammo shunga o'xshash qurilmaning moslashuvchanligi maxfiylik himoyachilari uchun tashvish uyg'otadi, ular yangi kuzatuv texnologiyasi tegishli nazoratsiz qo'llanilib, hukumatlarga katta yangi vakolatlar taqdim etilmoqda. Bu, ayniqsa, huquq-tartibot idoralari fuqarolarni to'liq erkinlik bilan kuzatish imkonini beradi. Xorijiy tajriba Ko'zoynaklar orqali identifikatsiya potentsiali oxir-oqibat Xitoyning kuzatuv holatini yanada kengroq qilishga umid bog'lagan. Ushbu qurilma yurtimizdagi mahalliy va xalqaro qidiruvdagi shaxslar, gumon qilinib suddan, tergovdan yashirinib yurgan, soxta hujjatlar asosida istiqomat qilayotganlar, shaxsni tasdiqlovchi hujjatining muddati o'tib ketgan fuqorolarni aniqlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ma'lumotlar almashinuvni hamda shaxslarni tezkor identifikatsiya jarayonini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
3. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
4. <https://www.egm.gov.tr> (turkiya davlati politsiyasining rasmiy malumotlar markazi)
5. <https://buhconsul.ru/> (Britaniya davlati politsiyasining rasmiy malumotlar markazi)
6. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)